

TAXIATOSH UNLARI SIFATI ENDI QOZOG'ISTONNIKIDAN QOLISHMAYDI

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)



Umumxalq Navro'z bayrami shodiyonalari kunlarida Taxiatosh tumani markazida «ATIYAJ-GULZAR» mas'uliyati cheklangan jamiyatining donni qayta ishlash korxonasi foydalanishga topshirildi.

Mazkur korxonaga Turkiyaning «OR-TAS» firmasining umumiy narxi 1 million 50 ming AQSh dollari bo'lgan zamonaviy uskunalari olib kelinib o'rnatildi. Sutkasiga 120 tonna donni qayta ishlash quvvatiga ega korxonada 90 tonna un, 30 tonna kepak ishlab chiqarilmoqda. 25 va 50 kilogrammlik «Beshqal'a», «Stella» savdo belgisi ostida chiqarilayotgan un mahsulotlari korxonaning ikki dona IZUZU rusumli yuk avtomashinalarida Orolbo'yining barcha shahar va tumanlaridagi, shuningdek Xorazm viloyati savdo markazlariga etkazib berilmoqda.

-2015 yilda qurilishi boshlangan korxonamizni «Asakabank»dan olingan 7 milliard so'm kredit evaziga qurib bitkazib, bayram arafasida foydalanishga topshirdik,-deydi «ATIYAJ-GULZAR» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Azat Mustafaev.-Maqsadimiz aholini sifati Qozog'iston unlaridan qolishmaydigan o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan ta'minlashdan iborat.

Korxonada «Beshqal'a», «Stella»dan tashqari yaqin kunlarda «Tumor» savdo belgisi ostida un mahsuloti chiqarila boshlaydi.

Yangi korxonada faoliyat boshlashi bilan 60 nafar kishi doimiy ish bilan ta'minlandi. Ulardan aksariyatini yoshlar tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston axborot agentligi

27.03.2018 20:31 da elon qilingan, marta korib chiqildi